Kodirova Muattar Ganijonovna (Buxoro davlat Pedagogika institute "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); Email: muatka1992@gmail.com; https://orcid.org/0009-0005-8596-2595)

SHARQ FAYLASUFLARI TA'LIMOTIDA ILM MASALASI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sharq falsafiy muhitida o'z o'rniga ega Abdulqodir Giloniy (1079–1165) ta'limoti va uning falsafaga oid ilmiy nazaryalari hamda Suqrot falyafiy qarashlaridagi umumiy tomonlari tahlil qilingan. Suqrot–hech narsa yozmagan. Uning ta'limoti Platon "dialog"lari orqali bizgacha yetib kelgan. Abdulqodir Giloniyning esa "Kamolotga yetkazuvchi o'n xislat", "Maktuboti Giloniy", "Tuhfat ul-qodiriya","Devoni G'avsul A'zam" (Toshbosma),"Sirrul asror","Rabboniylikni anglash" kabi asarlari tarjima qilinib nashr yuzini ko'rmoqda.*

Kalit so'z: *tasavvuf, qodiriya, so'fiylik, apemya, spktizim, axloqiy me'yorlar, ma'naviy meros, yuksak kamolot, ijtimoiy mavjudot, qadriyatlar, faktual bilim.*

Кодирова Муаттар Ганиджоновна (преподаватель кафедры "Общественные науки" Бухарского государственного педагогического института, доктор философии (PhD)

ВОПРОС НАУКИ В УЧЕНИИ ВОСТОЧНЫХ ФИЛОСОФОВ

Аннотация. *В статье анализируются учение Абдулкадира Гилани (1079-1165), занимающего видное место в философской среде Востока, и его научные теории по философии, а также общие аспекты философских взглядов Сократа. Сократ ничего не написал. Его учение дошло до нас через «диалоги» Платона. Были переведены и опубликованы такие произведения Абдулкадира Гилани, как «Десять качеств, ведущих к совершенству», «Мактубати Гилани», «Тухфат ул-Кадирия», «Дивани Гавсул А'зам» (Лампа), «Сиррул Асрор» и «Понимание Раббанилик».*

Ключевые слова : *Суфизм, кадирийа, суфизм, апемья, скептицизм, моральные нормы, духовное наследие, высокое совершенство, социальное существование, ценности, фактические знания.*

Kodirova Muattar Ganidjonovna (Lecturer of the Department of Social Sciences of the Bukhara State Pedagogical Institute, associate professor)

THE ISSUE OF SCIENCE IN THE TEACHING OF EASTERN PHILOSOPHERS

Annontation. *This article analyzes the teachings of Abdulqadir Gilani (1079–1165), who has a place in the philosophical environment of the East, and his scientific theories on philosophy, as well as the common aspects of Socrates' philosophical views. Socrates did not write anything. His teachings have come down to us through Plato's "dialogues". Abdulqadir Gilani's works such as "Ten Qualities Leading to Perfection", "Maktubati Gilani", "Tuhfatul Qadiriya", "Divani Ghavsul A'zam" (tashbosma), "Sirrul Asror", "Understanding Rabbaniylik" are being translated and published.*

Key word: *Sufism, qadiriyah, Sufism, apemya, sceptizim, moral standards, spiritual heritage, high perfection, social existence, values, factual knowledge.*

Kirish (Видение/Introduction). Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay, degan hadis tobora kun tartibimizga aylanib borayotgan hozirgi zamonda yoshlarimizning har tomonlama yetuk, ilmiy salohiyatli bo'lib yetishlarida mutafakkirlarimiz ma'naviy merosini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Zero, tarixni o'rganmasdan turib kelajak rejalarini tuzish mushkul ish. Shu ma'noda falsafa tarixida o'z ilmiy nazariyalarini yaratgan va insoniyat uchun ko'pgina ezgu ishlarning tamal toshini qo'ygan allomalarimiz ma'naviy merosi serqirradir. Xususan, tasavvufning qodiriya ta'limoti asoschisi Abdulqodir Giloniy (1079–1165) ta'limoti va undan oldinroq falsafaning fundamentini yaratgan olim Suqrotning asarlarida ilm masalasiga alohida e'tibor qaratilganligining guvohi bo'lamiz

Abdulqodir Giloniy ta'limoti bilan Suqrotning (mil. avv. 470–399) falsafiy qarashlarida umumiy tomonlarni kuzatish mumkin.

Suqrotdan oldin Falesdan to Demokritgacha (mil. avv. 460–370) 600–450-yillar naturfalsafa yo'nalishi hukmron bo'lib, falsafa, asosan, "tashqi" tomon, ya'ni tabiatni o'rganish predmeti qilib o'rgangan.

Suqrot hayotining asosiy davri natur falsafa davrida o'tgan bo'lsa, falsafiy tadqiqot predmeti ichki tomon, bilish, axloqiy me'yorlar bo'lgan, 450–400-yillarda hukmronlik qilgan antropotsentrizm tarafdori bo'lgan

Abdulqodir Giloniy qanday o'zidan keyingi Sharqdagi so'fiylik ta'limotiga chuqur ta'sir etgan bo'lsa, Suqrot ham g'arb dunyosi ruhiyatiga eng ko'p ta'sir ko'rsatgan kishilar sirasiga kiradi. Sofistlar zamondoshi bo'lgan Suqrot dastlabki afinalik faylasuf edi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Suqrot hech narsa yozmagan. Uning ta'limoti Platon "dialog"lari orqali bizgacha yetib kelgan. Abdulqodir Giloniyning esa "Kamolotga yetkazuvchi o'n xislat", "Maktuboti Giloniy", "Tuhfatul qodiriya", "Devoni G'avsul A'zam" (Toshbosma), "Sirrul asror", "Rabboniylikni anglash" kabi asarlari tarjima qilinib, nashr yuzini ko'rmoqda [1].

Suqrot ta'limotining markazida ham, Abdulqodir Giloniy ta'limotida ham axloqiy muammolar yetakchi o'rinda turadi. Suqrot sofistlarning skeptitsizmini rad etib, umumiy ne'mat–oliy ezgulik va adolat hisoblangan qadriyatlar va me'yorlar mavjudligini ta'kidlaydi.

Abdulqodir Giloniy har bir amali, ibodatining mohiyatini bilishga qanday undagan bo'lsa, Suqrot nazarida, bilim kishini ezgu niyatli qilib, yaxshi ishlarga yetaklaydi. Bilimli kishi ongli tarzda gunoh qilmaydi, ayb, gunoh ishlar yomonlik, bilimsizlikdan kelib chiqadi [2].

Abdulqodir Giloniy ta'limotining mag'zi Xudoni anglash, tanish – insonni anglash va tanish orqali kechadi. "O'zini tanisa, Robbini taniydi", degan hadisning ma'nosi–ana shu. Aziziddin Nasafiy, Abu Homid G'azzoliy, Jaloliddn Rumiy bu hadisni mudom zikr etganlar. Uning barcha vasiyat va o'gitlari insonning o'z-o'zini bilishi, o'z-o'zini boshqara olishiga qaratilgan. U insondagi barcha hissiy, aqliy, nafsoniy, ruhoniy quvvatlarni boshqara olishga o'rgatadi.

Insonning, aslida, nima ekanligini bilishning o'zi haqiqiy bilim ekanligi sababli, axloqan (adolat bilan) ish tutish degani, odamning insonning, aslida, nima ekanligi haqidagi qoidaga muvofiq ish yuritishini anglatadi.

Abdulqodir Giloniy komil, mukammal inson haqida fikr yuritgan bo'lsa [4], Suqrot grekcha apemya, ya'ni, saxovatlilikka ezgulik sifatida qaragan [5]. Inson, agar unga ato etilgan barcha qobiliyatlarga muvofiq keladigan darajada gavdalansa, ya'ni, inson sha'niga muvofiq bo'lgan chinakam namunani o'z timsolida namoyon qilgan bo'lsa, unda saxovatli inson bo'ladi. "Saxovatli" bo'lish hayotda o'z o'rnini topish, degan ma'noda "bilim"ning ekvivalenti sifatida qo'llangan. Suqrot bilimni – bu bizning o'zimiz va o'zimizning mavjudligimizni ko'radigan vaziyatlar haqidagi bilim sifatida ifoda etadi. Bunday bilim, asosan, tushunchalarni tahlil etish orqali, adolatlilik, mardlik, saxovatlilik va yaxshi hayot tushunchalarini aniqlash orqali vujudga keladi.

Saxovat bizning taomilga binoan yashashimizni anglatadi. Bilim inson bilan "yakdil bo'lib ketishi" kerak, ya'ni, u inson shunchaki men amal qilaman deb gapiradigan fikr emas, balki u haqiqatda rioya etadigan bilim bo'lishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Abdulqodir Giloniy ham ma'rifatli bo'lishga chaqirgan: "Ey johil ilm o'rgan, ilmsiz ibodatda ham, ilmsiz ishonchda ham xayr yo'qdir. Ilm ol va unga amal qil. Shunda dunyo va oxiratda najot topasan. Agar senda ilm olishda va unga amal qilishda sabr bo'lmasa, qanday qilib najot topasan?" degan [6]. U niyat va sidq masalalariga e'tibor bergan. Riyoli amalni qoralagan. Shuningdek, Abdulqodir Giloniy hayotining o'zi ham barcha uchun namunadir. Mana, masalan, olim va valiy Shayx Abdulqodir hazratlari birmuncha muddat ustozlarining madrasasida ta'lim beradi, turli mavzularda va'z qiladi. So'ngra bu ishlardan o'zini tortib, o'z-o'zini ma'naviy va ruhoniy tarbiya qilishga kirishadi hamda 25 yil Iroqning sahro-yu xarobalarida insonlardan alohida yashaydi, xilvatda mujohada qiladi. Bu davr ichida ulug' shayx yuksak kamolotga erishish, borliqni mohiyatini his etish, qalbni turli dunyo fitnalaridan va shayton hiylalaridan poklash uchun riyozat chekdi [7].

Suqrot bilimni tushunchalarni aniqlash yordamida o'zini-o'zi bilish sifatidagi bilim deb o'rgangan. Bu insonni tabiiy va ijtimoiy mavjudot sifatida o'zini bilishni anglatadi. U bilim uch qismni:

1) faktual bilimni (mavjudlik haqidagi);

2) normativ bilimni (narsalarni, aslida, qanday bo'lishi kerakligi haqidagi);

3) inson chinakamiga amal qiladigan bilimni o'z ichiga oladi. O'z-o'zini bilish bilimning bu uch jihatini muayyan tarzda birlashtiradi.

Abdulqodir Giloniy butun so'fiylar kabi ma'rifatli bo'lish va Haqqa yetish uchun "ilm-al-yaqin", "ayn-al-yaqin" va "haq-al-yaqin" bosqichlarini o'tib o'z-o'zining aslini bilish mumkinligini asoslab bergan.

Suqrot nafaqat aql-idrok, shu bilan birga, intuitiv his etish yo'li bilan qo'shiladigan ilohiy zakovat yordamida etikani pirovard asoslashga intiladi. U vijdon kategoriyasiga e'tibor beradi. Abdulqodir Giloniy ham ilohiy axloq bilan bezanish Ilohiy Go'zallik darajasida yuksalish uchun qalb ko'zi ochilgan, niyat sof bo'lish zarurligini ta'kidlagan [8].

Suqrotning fikricha, yaxshilik umumiy tushuncha hisoblanadi. Binobarin, yaxshilik, baxt-saodat, ne'mat va shu kabi umumiy tushunchalarning konseptual tahlili to'g'ri, saxovatli hayot uchun muhim hisoblanadi.

Abdulqodir Giloniy ta'limotida ham yaxshilik eng asosiy tushunchadir. "Ey qavm! Modomiki, hayot eshigi ochiq ekan, fursatni g'animat bilib, undan foydalaning, yaqinda bu eshiklar berkiladi. Modomiki, yaxshi amallar qilishga qodir ekansiz, ularni g'animat biling" [9].

Darhaqiqat, har bir damning qadrini yuksak bilib, imkon qadar, xayrli ishlar qilish, odamlarning mushkulini oson qilish, og'irini yengillatish har mo'min uchun farzdir.

Suqrot baxt-saodatni insoniy barqarorlik va asllik bilan bog'lagan. Saxovatni o'zida mujassam etgan va shu tariqa asl inson bo'lgan kishi "baxtiyordir". Baxt-saodat, asllik va saxovat o'zaro bir-biri bilan bog'liqdir. Abdulqodir Giloniy ham inson aslini bilib, Alloh roziligi yo'lida harakat qilganda boqiy yashaydi deydi [10].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Demak, Suqrot va Abdulqodir Giloniy turli makon va zamonda yashagan bo'lsalar-da, ma'nan va ruhan bir-birlariga yaqin buyuk tarixiy shaxslar bo'lganlar.

Yuqorida qodiriya ta'limotining noislomiy ildizlari xususida fikr yuritdik. Ushbu ta'limotning islomiy ildizlari esa o'z-o'zidan islom dinining muqaddas manbalaridan bo'lmish Qur'oni karim va Hadislarga borib taqaladi. Chunki Abdulqodir Giloniyning qaysi bir asariga murojaat qilmasak, unda va'zlar, axloqiy pand-nasihatlar, albatta, oyatlar va hadislar mazmunini tahlil etish bilan izohlangan. Bundan tashqari, Giloniy o'zi ustozlaridan olgan saboqlari uning dunyoqarashining mutasavvif sifatida kamol topishiga turtki bo'lgan. "Deyarli barcha manbalarda, Abdulqodir hazratlarining 18 yoshida Bag'dodga o'qishga borgani ta'kidlanadi. U yerda zamonasining mashhur olimlaridan dars oldi. Jumladan,

–fiqh ilmini – Abu Xattob Mahfuz, Abulvafo Ali bin Uqayl, Abu Husayn bin qozi Abu Ya'lodan;

–hadis ilmini–Hasan Boqulloni, Abu Said Muhammad bin Karim, Abu G'anim Muhammad bin Muhammad, Abu Bakr Ahmad bin Muzaffar, Abu Ja'far, Abu Qosim bin Ali, Abu Tolib bin Abdulqodir, Abu Bakr Hibbatulloh ibni Muborak, Abu'lizz Muhammad bin Muxtor, Abu Nasr Muhammad, Abu G'olib Ahmad, Abu Abdulloh Yahyodan;

–tasavvuf ilmini esa Shayx Abu Said Mahzumiy va Hammod Dabbosdan oldi. Demak, Abdulqodir Giloniyning faqih olim, muhaddis va mutasavvif bo'lib yetishishida yuqorida nomi qayd etilgan olimlarning ta'siri beqiyos bo'lgan. Chunki olimning qaysi asarlariga murojaat etmaylik, unda ifoda etilgan g'oyalar Qur'on oyatlari va hadislar bilan dalillangan.

Bu asarlar "Rabboniylikni anglash", "Al kunya li tolibi tariqil Haqq", "Sirrul asror" kabilardir. Masalan, "Rabboniylikni anglash" asaridan shunday misol keltirish mumkin: "Ey botil, ey yalqov, ey qabuli oz! Agar men aytgan narsani qabul etib, amal qilsang, o'zing uchun amal qilasan. Agar amal qilmasang, nafsingga o'ch va mahrum bo'lib qolasan.

Alloh taolo aytadi: "Har kimning qilgan yaxshi amali o'zi uchundir"(Baqara, 286) [11].

Keyinchalik, Abdulqodir Giloniyning vafotlaridan keyin xalq orasida u kishiga turli xil nisbatlar sharaflar berilgan. "Said Abdulqodir Hazratlarining shuhrati shu qadar yoyilib ketdiki, bu oradan necha asrlar o'tsa ham, davom etib kelmoqda. Ul zotni "Sulton ul-avliyo", "Mushohidalloh", "Amrilloh", Fazlulloh", "Omonulloh", "Nurulloh", "Qutbulloh", "Sayfulloh" "Farmonulloh", "Burhonulloh" "Oyatulloh", "G'avsulloh", "G'avsi Samadoni", Al-G'avs-ul A'zam"[12] degan sifatlar bilan ulug'laganlar.

Ushbu ta'riflar va unvonlar bu olimning naqadar ilmiga amal qiluvchi va ma'naviy yetuklik timsoli ekanligidan darak beradi.

Shayx ul-akbar Muhyiddin Muhammad ibn al-Arabiy (1165–1240) o'zining mashhur "Al-Futuhot al-Makkiya" asarida Abdulqodir hazratlarining "insoni komil" va zamonining qutbi", "tariqatning shohi va insonlarning taqdirida salohiyatdor" hamda "malomatiya arkonidandir", deya zikr etadi. Haqli ravishda aytish mumkinki, Abdulqodir xalq hayotida shunday ulug' olim sifatida iz qoldirgan ekan, uning olimlar xususidagi fikri diqqatga sazovordir: "Inchinun ular nabiylarning vorisi, xalifasi va rasullarning xalqqa hurmatli qilgan kishilaridir. Ayni damda, payg'ambarlar uchun eng yaxshi irfon tuyg'usini ular biladilar.

Haq taolo ilm sohiblarini maqtar ekan, shunday buyuradi: "So'ngra bu kitobga bandalarimizdan o'zimiz tanlagan zotlarni (ya'ni, sizning ummatingizni) voris qildik. Bas, ularning orasida (Qur'onni o'qisada unga amal qilmaydigan) o'z joniga jabr qilguvchi ham bor, ularning orasida o'rtacha amal qilguvchi ham bor va ularning orasida Allohning izn-u irodasi bilan mudom yaxshiliklarga shoshilguvchi ham bordir. Ana o'sha (ya'ni, Qur'onga voris bo'lish Allohning) katta marhamatidir". Bu e'tirof shuni anglatadiki, olimlar haqiqiy ma'noda ilmiga amal qilib ham diniy ham dunyoviylik nuqtayi nazaridan barchaga o'rnak bo'lsagina, komil inson maqomiga erishadi. Bunday insonlar tarixda nomlarini abadiylashtirgan olimlardir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Demak, qodiriya ta'limotining takomillashuvida Yevropa falsafasi namoyandalari, faylasuf mutafakkirlarining ta'siri bo'lgan, degan xulosaga ke-

lish mumkin. Qadimgi yunon faylasuflari Pifagor va Suqrot qarashlarining Abdulqodir Giloniy ta'limotida ham ta'siri bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References):

(1). Шайх Саййид Абдулқодир Гилоний. Сиррул асрор. Мактубот. Тошкент, "Мовароуннаҳр", 2005, 24-бет.

(2). Назаров Қ. Ғарб фалсафаси. "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти, Тошкент, 67-бет.

(3). Комилов Н. Тасаввуф. Тошкент, "Мовароуннаҳр", "Ўзбекистон" нашриёти, 2009, 25-бет.

(4). Юнусова Г. Абдулқодир Гилоний таълимотида инсон моҳияти. Бухоро, "Камолот", 2023, 165-бет.

(5). Гуннар Снирбек, Нилс Гилье. Фалсафа тарихи. Тошкент, "Шарқ", 2002, 74-бет.

(6). Абдулқодир Жийлоний. Раббонийлиткни англаш. 1-китоб. Таржима Муҳаммаджон Нуриддин ва бошқалар, Тошкент, "Sharq", 2005, 78-бет.

(7). Шайх Саййид Абдулқодир Гилоний. Сиррул асрор. Мактубот. Тошкент, "Мовароуннаҳр", 2005, 12-бет.

(8). Шайх Саййид Абдулқодир Гилоний. Сиррул асрор. Мактубот. Тошкент, "Мовароуннаҳр", 2005, 91-бет.

(9). Абдулқодир Жийлоний. Раббонийлиткни англаш. 1-китоб. Таржима Муҳаммаджон Нуриддин ва бошқалар, Тошкент, "Sharq", 2005, .227-бет.

(10). Абдулқодир Жийлоний. Раббонийликни англаш. 1-китоб. Таржима Муҳаммаджон Нуриддин ва бошқалар, Тошкент, "Sharq", 2005, 208-бет.

(11). Иноятов А., Зикриллаев. Ғ. Қуръони karим оятлари мазмун-маъносининг ўзбекча изоҳли таржимаси. Тошкент, "Hilol", 2022, 2-бет.

(12). Шайх Саййид Абдулқодир Гилоний. Сиррул асрор. Мактубот. Тошкент, "Мовароуннаҳр", 2005, 13-бет.

Kabulniyazova Gulchexra Tashpulatovna (O'zMU "Ijtimoiy fanlar" fakulteti "Falsafa" kafedrasi professori, f.f.d. (DSc)

UYG'ONISH DAVRI FALSAFASINING ANTROPOTSENTRIK VA GUMANISTIK YO'NALISHLARINING ASOSIY VAKILLARI

Annotatsiya. *Maqolada G'arbiy Yevropa falsafasi tarixida Uyg'onish davri deb nom olgan muhim davrning antropotsentristik va gumanistik qarashlarining ayrim jihatlari ochib berilgan. Koluchcho Solutati, Lorenso Valla, Dante Aligeri, Franchesko Petrarka kabi mashhur faylasuflar va adiblar ushbu g'oyalarni o'z ijodi markaziga qo'yishgan va keng ommaga badiiy-falsafiy tilda yetkazib berishga xarakat qilishgan. Maqolada ushbu muammolarni yoritishga harakat qilindi.*

Kalit so'zlar: *Uyg'onish davri, gumanizm, antropotsentrizm, panteizm, ontologiya, gnoseologiya, sxolastika, Foma Akvinskiy, inson g'ururi, ruhiy erkinlik.*

Кабулниязова Гулчехра Ташпулатовна (профессор кафедры «Философия» факультета «Социальных наук» Национального университета Узбекистана, доктор философских наук (DSc)

ОСНОВНЫЕ ПРЕДСТАВИТЕЛИ АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОГО И ГУМАНИСТИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЙ ФИЛОСОФИИ ЭПОХИ ВОЗРОЖДЕНИЯ

Аннотация. *В статье раскрываются некоторые аспекты антропоцентрических и гуманистических воззрений важного периода в истории западноевропейской философии, известного как эпоха Возрождения. Такие известные философы и писатели, как Колуччо Солютати, Лоренцо Валла, Данте Алигьери и Франческо Петрарка, ставили эти идеи в центр своих работ и стремились донести их до широкой публики на художественном и философском языке. В статье предпринята попытка пролить свет на эти вопросы.*

Ключевые слова: *Возрождение, гуманизм, антропоцентризм, пантеизм, онтология, эпистемология, схоластика, Фома Аквинский, человеческая гордость, духовная свобода.*

Kabulniyazova Gulchekhra Tashpulatovna (Professor of the Department of "Philosophy" of the Faculty of "Social Sciences" of the National University of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (DSc)

THE MAIN REPRESENTATIVES OF THE ANTHROPOCENTRIC AND HUMANISTIC TRENDS OF RENAISSANCE PHILOSOPHY

Annotation. *The article reveals some aspects of the anthropocentric and humanistic views of an important period in the history of Western European philosophy, called the Renaissance. Famous philosophers and writers such as Coluccio Solutati, Lorenzo Valla, Dante Alighieri, Francesco Petrarch*